

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7

2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti



7491

ISSN: 2992-8982

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:	
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобального потепления земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соисследователь	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmnинг аhamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faoliyatini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombok Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri.....	222
Kutbitdinova Moixigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Исандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna, k.э.н., dozent	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktarant	
Optimizatsii operatsionnoi strategii i povyshenie ekonomicheskogo potentsiala chlopkovo-tekstil'nykh klastерov	334
Dzhurabaev Otabek Dzhurabaevich, dozent kafedry	
Neobходimost' upravleniya aktivami i passivami sovremennymi bankami Uzbekistana	341
Fattahova Munisa Abduxamitovna	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Cifrovaya valyuta:可能ные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Baxromov Mirzaakhmad Rustam ugли, student; Abdikarimova Dina Rустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Oсобенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
D. K. Ismagilov, kandidat pedagogicheskikh nauk, dozent	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



O'ZBEKISTONDA SANOAT KOOPERATSIYASI ASOSIDA TAYYOR MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARI TAHLILI

Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich

i.f.f.d.(PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dekan muovini



Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz sanoat tarmoqlari rentabelligi va mahalliylashtirish jarayonlarining hozirgi holati tahlili, sanoat korxonalarining rentabelligini oshirishga mahalliylashtirishning ta'siri, sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari holati, "O'zavtosanoat" AJning mahalliylashtirish doirasidagi kooperatsiya aloqalari berilib, ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, kooperatsiya, "O'zavtosanoat" AJ, mahsulot, mahalliylashtirish, sifat.

Аннотация: В данной статье проводится анализ рентабельности отраслей промышленности и современного состояния процессов локализации в нашей стране, влияние локализации на повышение рентабельности промышленных предприятий, состояние процессов локализации производства готовой продукции на основе производственной кооперации., кооперационные отношения АК "Узавтосаноат" в рамках локализации, даны научно-теоретические и практические важные выводы.

Ключевые слова: промышленность, кооперация, АК "Узавтосаноат", продукт, локализация, качество.

Abstract: This article provides an analysis of the profitability of industrial sectors and the current state of localization processes in our country, the impact of localization on increasing the profitability of industrial enterprises, the state of localization processes of the production of finished products based on industrial cooperation, the cooperative relations of JSC "Uzavtosanoat" within the scope of localization, scientific-theoretical and practical important conclusions are given.

Key words: industry, cooperation, "Uzavtosanoat" JSC, product, localization, quality.

1. KIRISH

Iqtisodiyotning yetakchi sohasi bo'lgan sanoatda ro'y beradigan barcha hodisa va o'zgarishlarni tadqiq etish anchagina murakkab jarayondir. U jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyatga o'tishni, ya'ni haqiqatni bilishning, obyektiv reallikni tan olishning dialektik yo'lidan foydalanishni taqozo etadi. Bunday uslubiy yondashish sanoat, uning tarmoqlari hamda korxonalarida ro'y beradigan hodisalar, vogeliklar va iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini, ularning uzuksiz harakati, taraqqiyot va o'zgarishi, miqdor ko'rsatkichdan sifat ko'rsatkichga o'tishi, makon va zamonda rivojlantishini anglab olishga yordam beradi. [1]

Respublikamizning viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish hisobiga hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish, aholi bandligini ustuvor ta'minlash, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish dolzab masala hisoblanadi. Maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni yanada keng joriy qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish mavjudlarini samarali faoliyat olib borishini ta'minlashdan iborat.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodiyotni global rivojlantirish va ishlab chiqarish resurslarining xalqaro ko'chishi, "ishlab chiqarishni mahalliylashtirish", "mahalliy mahsulot" masalalari xorijiy olimlardan: I. Tyunen, V. Laundhardt, A. Veber, A. Lyosh, V. Kristaller, D. Markusen, J. Danning, S. Tauer, D. Chikuair, K. Bexrens, S. Gayjn, G. Ottaviano O. Kalemli, B. Sorenson, O. Yosha, P. Krugman, G. Mullig, S. Shimid va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan.

MDH olimlardan: A. Vazyanskiy, P. Kovalev, A. Medved, V. Kondratyeyev, Y. Nikinov, B. Smitenko, V. Nosnelov, N. Va'stuekin, M. Muntyan, A. Ursul, V. Kolesov, Y. Shishkov, E. Kochetov, V. Zubenko, V. Bandurin



va boshqalar globallashuvning makroiqtisodiy jihatlarini alohida tadqiq etishgan va mahalliylashtirishga import o'rnni bosish, investitsiyalar jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish omili sifatida ilmiy yondashganlar.

O'zbekistonda esa globallashuv va mahalliylashtirishning nazariy va uslubiy asoslari mahalliy olimlari-mizdan: S. G'ulomov, Q. Abdurahmanov, T. Ahmedov, A. Bekmuradov, B. Salimov, M. Tursunxodjayev, N. Haydarov, A. Burxanov, N. Xoshimova, N. Maximov, B. Berkinov, F. Egamberdiyev, Sh. Mustafakulov, Z. Xusanov va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan.

Yuqorida mualliflarning ilmiy ishlarida sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish asoslarini o'rganishga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Shu sababli, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan hisoblangan sanoat tarmoqlarida mahalliylashtirishdan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini chuqr o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

3. TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari bo'yicha O'zbekiston boy tajribaga ega davlat hisoblanadi. Xususan, mamlakatimizda 2000-yildan boshlab mahalliylashtirish jarayonlari keng qamrovda amalga oshirilib kelinayotgani va maqsadli dasturlar qabul qilinayotganligining o'zi ushbu sohaning milliy iqtisodiyotda naqadar muhim o'r'in tutishini anglatadi.

Mahalliylashtirishning zamonaviy konsepsiysi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni nafaqat ichki, shuningdek, tashqi bozorda raqobatdoshligini oshirishni ko'zda tutadi. Chunki bu borada mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi xorijiy davlatlarga xom ashyo emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksport qilishni yo'liga qo'yishdan iborat.

Zamonaviy mahalliylashtirishning asosiy yo'nalishi – bu xom ashyyoga yo'naltirilgan emas, balki xom ash-yoni chuqr qayta ishlovchi, yuqori texnologik sanoat sektorlarini rivojlantirishdir.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan hududda quyidagi ijobiy ko'rsat-kichlar kuzatiladi:

- A) Ishlab chiqarish mahalliylashtirilgan joy obro'-e'tibor qozona boshlaydi. Xususan:
 - ishchilar o'zini yaxshiroq ko'rsatishga harakat qiladi;
 - ishlab chiqarishni yaxshi o'zlashtirganlar esa hukumatning imtiyozlaridan foydalanib o'zining biznesini boshlash harakatiga tushadilar.
- B) Malakalilar mehnati. Ya'ni:
 - mahalliylashtirish aniq kasblarni ixtisoslashishiga olib keladi;
 - mutaxassislar mahalliylashtirilayotgan joyga jamlanib boradi;
 - mahalliy aholi ham asta-sekinlik bilan mutaxassislar tomonidan yangi kasblarga o'qitilib (tayyorlab) bo-riladi.
- C) Son va sifatning o'sishi:
 - sanoat jalb etilgan hududda boshqa sanoat ishlab chiqarish obyektlarining ham jalb etilib borishini ko'rish mumkin;
 - bank va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi muassasalar o'z filiallarini sanoat jalb etilgan hududda ham ochadilar;
 - temiryo'l va yuk tashuvchi korxonalar o'z xizmatlarini mazkur hudud uchun maxsus xizmatlarini taqdim etish uchun harakat qiladilar.
- D) Mahalliylashtirish zanjiri:
 - mahalliylashtirish joriy etilgan joylarda sanoatning qo'shimcha tarmoqlari, mahsulot ishlab chiqarishdag'i inventar, asbob-uskunalarni ishlab chiqarish ham kengayib boradi. Bu mahalliylashtirish zanjiri deb ataladi.
- E) Muammolarni birgalikda hal etish:
 - mahalliylashtirish jarayonida hamma ishtirokchilar bir maqsad uchun birlashadilar;
 - ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy muammo paydo bo'ladigan bo'lsa mahalliylashtirishda uyushgan jamoa bir-galikda harakat qiladi.



Aksariyat xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda esa mahalliylashtirishga davlat tomonidan ichki bozorni xorijiy ishlab chiqaruvchilardan himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish jarayoni sifatida qaralgan va qattiq tanqid ostiga olingan.

Lekin bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini kuzatish mumkin. Bunga yalpi ichki mahsulotining hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turuvchi Xitoy xalq respublikasi misol bo'la oladi.


Shuningdek, mamlakatimizda ham mahalliylashtirish jarayonlarini izchil amalga oshirilib kelinishi natijasida 19 mingdan ziyod ish o'rni yaratilib, hududlarda aholining bandlik darajasini ortishiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirish asosida albatta tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi. Shu sababli, Respublikamiz sanoatini yetakchi tarmoqlarida mahalliylashtirish jarayonlarini jadal sur'atlarda amalga oshirish bo'yicha barcha viloyatlarda maqsadli "yo'l xaritalari" ishlab chiqilib, amaliy loyihibar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi keyingi yillarda yuqori sur'atlarda o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2017-yilda 9,9 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2006–2017-yillarda o'rtacha 26,8 foizga to'g'ri kelgan. Dinamikasiga e'tibor qaratilganda 2013-yildagi ko'satkichlarga 2017-yilda ham yetmagan (1-rasm).

Sanoat tarmoqlarida uskuna va butlovchi qismlarini mahalliylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar 2014-yildan boshlab tashabbus va amaliy harakatlar o'zining ijobji natijalarini bermagan.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm [2]

Respublikada 2005-yilda mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmida Andijon viloyatining hissasi 67,78 foiz, Toshkent shahrining hissasi esa 23,45 foizni tashkil etgan. Ushbu holat mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish asosan yirik sanoat majmualari to'plangan hududlarga to'g'ri kelgan. Ushbu tendensiya 2010-yilgacha davom etgan va Andijon viloyatida "JM Uzbekistan" qo'shma korxonasiga mahsulot yetkazib beruvchi qariyb 200 ga yaqin korxonalar faoliyat olib borgan. Viloyatda yengil avtomobilarning uskuna va jihozlarini modernizatsiya qilish, yengil avtomobillar qismlarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, yangi modeldagи avtomobillar uchun interyer, shtamplangan, payvandlangan panellar, radiator, konditsioner tizimlari, o'rindiqlar, ovoz so'ndirgich tizimi qismlari, gaz chiqarish tizimlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi hamda 2017-yilda avtomobillar ishlab chiqarish hajmini ortishi natijalari Andijon viloyatining mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog'ini 2015-yildagi 2,7 foizdan 2017-yilda 8,9 foizga oshirgan. Shuningdek, yangi tashkil etilgan mahalliylashtirilgan korxonalarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlar tizimi, mahsulot tannarxi, narxlarning shakllanishi, foyda va rentabellik, moliyalash va kreditlash masalalari bo'yicha ijobji natijalar berishi bosh maqsadlar sifatida belgilab berilgan. [3]

Viloyatda "JM Uzbekistan" qo'shma korxonasida avtomobillar ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi esa 2015-yilden boshlab Andijon viloyatining mahalliylashtirilgan mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3,7 foizza tushib ketishi va respublikaning mahalliylashtirilgan mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini keskin kamayishini yuzaga chiqqagan. 2017-yilgi holatga ko'ra, Respublikada mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishning 86,8 foizi 4 ta viloyat (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon viloyati, Toshkent viloyati, Toshkent sh.) hissasiga to'g'ri kelmoqda (1-jadval).



1-jadval: O'zbekiston Respublikasida mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmida viloyatlar salmog'i, foizda [2]


Ko'rsatkichlar	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2017-y.	2018 y.
Mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mldr. so'm	100	100	100	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,26	0,60	3,5	16,6	26,4
Andijon viloyati	67,78	52,05	3,7	8,9	33,3
Buxoro viloyati	0,20	0,71	3,0	2,0	0,5
Jizzax viloyati	0,92	0,59	1,6	0,3	0,9
Qashqadaryo viloyati	0,06	0,93	3,4	1,7	0,03
Navoiy viloyati	0,07	4,17	1,1	1,0	1,7
Namangan viloyati	0,46	1,29	1,3	1,4	1,5
Samarqand viloyati	1,71	4,57	5,0	4,0	2,3
Surxondaryo viloyati	0,00	0,03	0,0	0,0	0,004
Sirdaryo viloyati	0,02	0,08	1,0	0,7	0,3
Toshkent viloyati	2,17	5,63	9,6	8,5	4,5
Fargona viloyati	2,75	3,39	1,4	1,4	0,9
Xorazm viloyati	0,16	0,06	1,0	0,6	0,1
Toshkent sh.	23,45	25,90	64,1	52,8	27,7

Tahlil natijalaridan kelib chiqmoqdaki, Respublika viloyatlarida mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mahalliy hokimliklar tomonidan samarali siyosat deyarli olib borilmagan. Asosan respublika doirasida amalga oshirilgan yirik loyihalarga mahalliylashtirish dasturlarini olib borgan.

Respublikada 2018-yilda jami mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 297 tani tashkil etib, 2015-yilga nisbatan 12 taga, 2010-yilga nisbatan 93 taga, 2005-yilga nisbatan 167 taga ko'paygan va jami maxalliylashtirilgan mahsulotlar soni 2000 dan ortiq turlari o'zlashtirilgan.

Mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar soni dinamikasidan ko'rish mumkinki, deyarli 200 ga yaqin korxonalar asosan avtomobil sanoati uchun mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Yuqorida qayd etilganidek, 2014-yildan boshlab "JM Uzbekistan" qo'shma korxonasida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarini pasayib borishi natijalari ko'plab korxonalarning o'z faoliyatini to'xtatishini keltirib chiqargan.

Respublikada sanoatni rivojlantirish yo'nalishlarida 2017-yilda Mahalliylashtirish dasturi doirasida \$512 mln.lik yoki 2016-yilga nisbatan 20 % ko'p mahalliylashtirilgan mahsulot eksport qilingan. 100 turdag'i yangi mahsulot ishlab chiqarish o'zlashtirilgani, bazaviy tarmoqlarda import \$353 mlniga qisqartirilgan. Biroq "2017-yilda 948 ta mahalliylashtirish loyihasidan 176 tasi bo'yicha ishlab chiqarish boshlanmagani, 218 tasi bo'yicha esa ishlab chiqarish prognozi" bajarilмаган (2-rasm).



2-rasm: O'zbekiston Respublikasi mahalliylashtirilgan mahsulot eksporti hajmi, mln. doll.



Respublikada mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti 2006–2017-yillar tahliliga ko'ra eng yuqori natija 2012-yilda kuzatilgan va uning hajmi 1030,6 mln AQSH dollariga teng bo'lgan. Eng past natija esa 2014–2015-yillar oralig'iga to'g'ri kelgan. Mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksportining rivojlanish dinamikasiga ko'ra, 2014-yildan boshlab, salbiy tendensiyaning pasayishi kuzatilgan (2-rasm).

O'zbekiston Respublikasida mahalliylashtirilgan mahsulot eksportida 2017-yilda salmoqli ulush Qoraqol-pog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri kelib, jami 355,4 mll AQSH dollari yoki, 69 foizni, Andijon viloyatining hissasi esa 76,5 mll AQSH dollori yoki, 15 foizni, Toshkent shahrining hissasi esa 39,5 mll AQSH dollori yoki, 8 foizni tashkil etgan etgan bo'lib, boshqa viloyatlar hissasi deyarli bir foizdan ham kam.

Mamlakatning raqobatdoshligi milliy sanoatning doimiy ravishda rivojlanish hamda innovatsiyalarni ishlab chiqarishga qodirligi bilan belgilanadi. Uning negizida to'rtta muhim jihat, ya'ni mehnat, tabiiy resurslar, infrazilma, bilim, kapital singari omillarga ega sharoitlar, ichki hamda tashqi talab, o'zaro aloqador (texnologik jihatdan biri-birini to'ldiradigan) va ko'makdosh tarmoqlar (tarkibiy buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqalarini yetkazib berish) rivojlanganligi va ichki bozordagi raqobat (bu omil istiqbolda firmaga tashqi bo-zorda raqobatda ustunlik beradi) yotadi. Ishlab chiqarishdagi rivojlanish omili aksariyat hollarda import qilinadigan tarkibiy buyumlarni hamda yarim tayyor mahsulotlarni mahalliylashtirish yo'li bilan ta'minlanishi muhim shart hisoblanadi. Ushbu holat esa sanoatni modernizatsiyalashning amaliy vositasi sifatida ham qo'llanilishi va yangi mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish bo'yicha mahalliylashtirishning eng kam chegarasi mamlakatda o'natalishi belgilanishi lozim.

Mahalliylashtirish sanoat siyosatining vositasi sifatida faqatgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, faqat import o'rnni qoplash maqsadidagina foydalanimayotgani bilan bir qatorda ularda eksportni kengaytirishga qaratilgan maqsadlar ham asosiy strategiya sifatida belgilanishi lozim. Jahon mamlakatlarida "2008–2009-yillardagi global inqiroz sharoitida jahondagi deyarli barcha mamlakatlar yirik mahalliylashtirish dasturlarini amalga oshirdi va natijalar ishsizlikni kamaytirish, tannarxni pasaytirish va jahon bozorlaridagi raqobatni ta'minlash imkoniyatini berdi. Shuningdek, sanoatda yangi tarmoqlarni rivojlantirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni, axborot texnologiyalarini, qayta tiklanadigan energiya manbalarini yo'lga qo'yishga keng imkoniyatlar yaratib berdi".^[4]

Ushbu holatlarni inobatga olganda mahalliylashtirish shunchaki import o'rnni qoplash siyosati emas, balki, o'rinnarini yaratish, chet el investitsiyalari hamda texnologiyalarini jalb qilish va qo'shilgan qiymat global zanjiri (tayyor mahsulot ishlab chiqarishning zamonaviy taqsimoti)ga kirishni ta'minlaydigan, eksport imkoniyatlarini oshiradigan samarali mexanizm hamdir. Qo'shilgan qiymat global zanjiriga (yoki texnologik zanjir) kirish uchun to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish ham ana shunday vositalardan biri hisoblanadi. So'nggi bir yarim yil mobaynida yangi texnologiyalarini joriy qilish, jumladan, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini o'tkazish, ta'lim tizimini rivojlantirish hamda klasterlar shaklida yangi sanoat komplekslarini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan siyosat aynan ushbu maqsadga qaratilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda foydalanimayotgan mahalliylashtirish dasturlari samadorligini yanada oshirishga qaratilgan maqsadli strategiyalarini belgilash, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tubdan takomillashtirish maqsadga muvofiqligi asoslanmoqda.

4. NATIJALAR MUHOKAMASI

Umuman, Respublikada sanoatini mahalliylashtirishni rivojlanishi asosan mashinasozlik, neft-kimyo, farmasevtika, to'qimachilik, kimyo va qora metallurgiya kabi tarmoqlar jadal o'sishi bilan bog'liq. Mintaqalarda sanoatni mahalliylashtirishni rivojlanishidagi farqlanishi asosan yirik sanoatning joylashuviga hamda boshqa ichki omillar hisoblangan tabiiy xom ashyo, mehnat va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishda nomutanosiblikning mavjudligi bilan ifodalanadi.

Respublika hududlarida mahalliylashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik biznes subyektlarining salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, shahar va tumanlarning harakatlar dasturi orqali keskin oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Hududiy mahalliylashtirishni rag'batlantirish asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalasi qo'mitasining 2017-yil 21-iyundagi 05–16/661-sonli topshirig'i ijrosi bo'yicha kichik biznes subyektlari bilan hududiy yirik sanoat korxonalari o'rtasida mahalliylashtirish dasturlari asosida o'zaro kooperatsion aloqalarni rivojlantirish bo'yicha muammolar va tavsiyalar ishlab chiqilgan (2-jadval).



2-jadval: Kichik biznes subyektlari bilan hududiy yirik sanoat korxonalari o'rtasida mahalliylashtirish dasturlari asosida o'zaro kooperatsion aloqalarni rivojlantirish

T/r	Muammoning tavsifi	Muammoning yechimi yuzasidan takliflar
1.	KBT subyektlarining kasanachilik va mahalliylashtirish dasturlari asosida faoliyat ko'rsatishlari maqsadga muvofiq emas	Hududiy sanoat korxonalari bilan KBT subyektlari o'rtasida o'zaro aniq maqsadga yo'naltirilgan manzilli dasturlarni yaratish. Bunda joylardagi mahalla fuqarolar yig'ini faolligini keskin oshirish choralarini ko'rish
2.	Hududiy eksport salohiyatini rivojlantirishda interaktiv elektron axborot kommunikatsiya tarmoqlari faoliyatini yanada kuchaytirish masalalari	MDH va xorijiy miqyosda eksport va import salohiyatini to'g'ridan to'g'ri aloqalarni tezkor usulda, samarali amalga oshirishda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati bo'yicha o'rnatalgan tartibda bojxona va mahalliy imtiyozlar berilishi
3.	Hududda tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ularish shart-sharoitlarini takomillashtirish masalasi	Muqobil energiya manbalarini yaratishda, aholini uzlusiz gaz va suv bilan ta'minlashga yo'naltirilgan innovatsion loyihamlar asosida faoliyat ko'rsatadigan texnoparklar faoliyatini shakllantirish va mazkur sohalar da faoliyat ko'rsatayotgan KBT subyektlarini moddiy va moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish
4.	Kichik biznes subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatini rivojlantirish omillari	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik sanoat korxonalari o'rtasida ichki tarmoq kooperatsiyasini rivojlantirish yo'lida istiqbolli sanalgan loyihamlar bo'yicha investitsiya dasturlari ro'yxatini shakllantirish lozim. Shuningdek, sug'urta, lizing kompaniyalari, konsalting va boshqa turdag'i bozor infratuzilmalari tomonidan ko'rsatayotgan xizmatlar ko'rsatish sohalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar aniq manzilli dasturini ishlab chiqish
5.	Hududda kichik biznes subyektlari ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish masalalari	Mahalliy tadbirkorlik subyektlariga taklif etilayotgan biznes inkubatorlar, biznes markazlar, noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq huquqbazarlik holatlari bo'yicha profilaktika ishlarining (reabilitatsiya, ko'maklashish) markazlari faoliyatini tashkil etish kerak.

Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Kichik biznes subyektlari bilan hududiy yirik sanoat korxonalari o'rtasida mahalliylashtirish dasturlari asosida o'zaro kooperatsion aloqalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy choralar hududlarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, sanoat tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlari eksportini ko'paytirish va an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish, samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarini zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobidan iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish muammlarini yechishda asosiy omil bo'lmoqda.

Tahlillardan ma'lum bo'lmoqdaki, so'nggi yillarda mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahalliyashgan mahsulotlar ulushi Qoraqolpag'iston Respublikasida yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahalliyashgan mahsulotlar ulushi, 2006-yilgi sanoat umumiyligi hajmidagi 1,8 foizdan, 2017-yilda 23,9 foizga oshdi, Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar soni 2006-yildagi 2 tadan 2017-yilda 8 tagacha o'sgan. 2017-yilda Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalarda 8 ta loyiha amalga oshirildi va 1018,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Bunda loyihamlar bo'yicha mahsulotlar sotishning umumiyligi hajmi 2015-yil ko'satkichlariga nisbatan 33,3-martaga ortgan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Har bir hududning tabiiy iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, mavjud resurslaridan kelib chiqqan holda Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikamizning barcha viloyatlarida mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan bir qator loyihamlar amalga oshirilib mahsulotlarning yangi turlari o'zlashtirilmoqda.

Buning natijasida aholi talablarini qondirishda xorijiy mamlakatlardan import qilinayotgan mahsulotlarni o'rnni bosuvchi sifatli va narx jihatdan bir necha-marta arzon bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lg'a qo'yilgan bo'lib, pirovardida ushbu mahsulotlarni eksportga yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Xususan, misol tariqasida mamlakatimizning Quyi Amudaryo mintaqasida joylashgan Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan mahalliylashtirish jarayonlari natijasida "2016-yilda 6 ta korxona tomonidan amalga oshirilgan 9 ta loyihamlar bo'yicha 20,3 mlrd. so'mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz ko'rsatkichlari 105,5 foizga bajarilgan".



Jumladan, "Xiva maishiy texnika" MCHJ tomonidan 1,9 mln. soʻmlik 1500 dona 215 "XINGX" turdagи mini muzlatkichlar, vitrinalisovutkich va muzlatkichlar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz koʻrsatkichi 149 foizga bajarildi. "Eko kompani" XF tomonidan 8,6 mlrd.soʻmlik 220 dona suv tozalash filtrlari va 3,2 mlrd.soʻmlik 45 dona xlroratorlar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz koʻrsatkichi 287,7 foizga, "Tabassum servis" XK tomonidan 800 mln.soʻmlik 20 ming dona mакtab oʻquvchilari uchun sumkalar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz koʻrsatkichi 100 foizga, "Mini akkumulyator" MCHJ tomonidan 324,6 mln.soʻmlik 10 ming dona 6 ct–132 DIN, 6 st–190 DIN markali akkumulyatorlar uchun monobloklar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz koʻrsatkichi 100,7 foizga bajarilgan.

Shuningdek, "3,1 mlrd.soʻmlik 200 ming dona 6st–55MF J200 (yangi modifikatsiya) markali akkumulyatorlar uchun monobloklar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz koʻrsatkichi (100,0 foiz) toʻliq bajarilgan, 1,6 mlrd.soʻmlik 100 ming dona 6st–60 DIN markali akkumulyatorlar uchun monobloklar ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz koʻrsatkichi 100,1 foizga bajarilgan boʻlsa "LYUKS SPORT INVERTER" XK tomonidan 82,0 mln. soʻmlik 50 dona sport inventarlari va trenajerlari ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz koʻrsatkichi 164,0 foizga bajarilgan". [2]

Ushbu hududda 2016-yilda korxonalar tomonidan 6,3 mln. AQSH dollarlik import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilib, 6 ta yangi ishchi oʻrinlari yaratilishiga erishilgan.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa oʻrnida qayd etish joizki, mamlakatimizda mahalliylashtirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihibar tadqiq qilinganda hududiy nomutanosiblikni kuzatish mumkin. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarish korxonalarini mahalliylashtirish dasturiga kiritish jarayonlarini muayyan darajada soddalashtirish zarurligi;

sanoat kooperasiyasini rivojlantirishga hududlararo integrasiyalashuv quyi darajada boʻlib, hududlararo maʼmuriy va iqtisodiy toʼsiqlar mavjud;

hududlarning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishida tabaqlananish yuqori;

ayrim hududlarda elektr energiyasi, gaz taʼminotidagi uzilishlar kabi muammolar mavjud;

Ushbu muammolarni hal etish, hududiy tasarrufdagи korxonalarning mahalliylashtirish dasturi doirasidagi loyihibarini shakllantirish uchun qator dolzarb vazifalarni amalga oshirish zarur. Xususan, mahalliylashtirish dasturi bajarilishini monitoring qilish, dasturni shakllantirish jarayonlari va tartiblarini yanada soddalashtirish, har bir mintaqadagi yirik hamda kichik korxonalar oʻrtasida sanoat kooperatsiyasi aloqalarini rivojlantirish lozim. Shuningdek, tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni amalga oshirayotgan korxonalarini zarur kredit mablagʼlari bilan taʼminlash ham muhim vazifalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahim Ortikov. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʼarmasi nashriyoti, Toshkent 2009 , TDIU–239 b.(<http://uz.denemetr.com/docs/769/index-109728-1.html>)
2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʼmitasi maʼlumotlari
3. <http://uza.uz/oz/politics/andizhon-viloyati-izhtimoiy-i-tisodiy-tara-iyetining-yangi-b-05-06-2017>
4. Sh. Nazarov. Eksportni kengaytirishning muhim sharti. <http://xs.uz/uzkr/post/eksportni-kengajtirishning-muhim-sharti.2018-yil-12-mart>.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.